

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

MANNONOVA SAODAT ARTIKOVNA

“RASMIY MULOQOTNING KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK ASPEKTI”
(INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI TIJORIY YOZISHMALAR
MISOLIDA)

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам
Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

Mannonova Saodat Artikovna

Rasmiy muloqotning kommunikativ-pragmatik aspekti (ingliz va o'zbek tillaridagi tijoriy yozishmalar misolida).....3

Маннанова Саодат Артиковна

Коммуникативно-прагматический аспект формального общения (на примере коммерческой переписки на английском и узбекском языках) 23

Saodat Artikovna Mannonova

The Communicative-Pragmatic Aspect of Formal Communication (on the Example of Commercial Correspondence in English and Uzbek) 45

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

The list of publications 49

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

MANNONOVA SAODAT ARTIKOVNA

“RASMIY MULOQOTNING KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK ASPEKTI”
(INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI TIJORIY YOZISHMALAR
MISOLIDA)

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasida B2020.3.PhD/Fil376 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) veb-sahifaning (www.uswlu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Karimov Rivojiddin Gulamjonovich
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponetlar:

Xayrullayev Xurshidjon Zayniyevich
filologiya fanlari doktori, professor

Sarimsoqov Xurshid Abdumalikovich
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil "12" oktabr kuni soat 13 da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-A uy. Tel.: (99871) 230-12-91, faks: (99871) 230-12-92, e-mail: uzswlu_info@mail.ru).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№1128 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-A uy. Tel.: (99871) 230-12-91, faks: (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "8" oktabr da tarqatildi.
(2024-yil "8" oktabr da) "27" raqamli reyestr bayonnomasi).



[Handwritten signature]

I.M. Tuxtasinov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi p.f.d., professor

[Handwritten signature]

X.B. Samigova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.f.d., professor

J.A. Yakubov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.f.d., professor

KIRISH(Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida turli tillarning nutq jarayonida yuzaga keladigan amaliy muammolariga, shaxslar va millatlararo rasmiy munosabatlardagi ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilayotgani bugungi kunda tijorat sohasida olib borilayotgan izlanishlar hamda ularning amaliy natijalariga tobora ko'proq ehtiyoj sezilib bormoqda. Zero, til insonlarning ma'naviy va ijtimoiy mulodotlarga kirishishida badiiy vosita bo'libgina qolmay, balki aloqalmashinuv uchun xizmat qilib, axborotni saqlaydi va uzatadi. Hozirgi rivojlanish davrida har qanday tillarida rasmiy muloqotda odob-ahloq qoidalari va ularga rioya qilishlik, davlat va davlatlararo rasmiy siyosiy-iqtisodiy, madaniy aloqalar o'rtasidagi tutgan o'rni va ahamiyatli jihatlari, milliy-madaniy xususiyatlari va internet diskursi muammolarini qiyoslash ustuvor yo'nalishga aylanib bormoqda.

Hozirgi vaqtda jahonda yuz berayotgan globallashuv jarayoni dunyo tilshunosligiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Natijada barcha sohalar kabi tijorat sohasida ham ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Xalqaro siyosiy, ijtimoiy munosabatlarda, axborot ayirboshlash sohalarida yirik global muammolarni hal qilish, diplomatik aloqalarni rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashda rasmiy muloqot rivojlanishi tendensiyalari hamda konsepsiyasini ilmiy asoslash dolzarblilik kasb etmoqda.

O'zbek tilshunosligida, mustaqillik yillaridan boshlab turli xalqlar milliy-madaniyati va iqtisodiyotini rivojlantirishga qaratilgan bir qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Bugungi kunda xalqaro savdo, sarmoyalar va biznes hamkorliklari orqali iqtisodiy aloqalar mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy integratsiya, innovatsiya, madaniy almashinuvni rivojlantirish va global iqtisodiy muhitda raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan tadqiqotlar kun sayin ortib bormoqda. Mamlakatimizda qabul qilingan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"¹ Farmonida "Tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning normativ-huquqiy bazasini hamda xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish" masalasi alohida ta'kidlab o'tilgan. Mamlakatimizda tijorat sohasida olib borilayotgan islohotlar, qabul qilingan qator qonun va qarorlar sohada ilmiy tadqiqot ishlarining yangi bosqichga ko'tarilishiga turtki bo'lmoqda. Chog'ishtirma tilshunoslikda rasmiy muloqotning turli tillarda qiyosiy tadqiq qilinishi va kommunikativ-pragmatik jihatdan o'rganilishi o'zbek tilshunosligi uchun dolzarb hamda muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, olib borilayotgan tadqiqotlarda tijoriy yozishmalarni kommunikativ-pragmatik jihatdan tadqiq etish hozirgi o'zbek tilshunosligi uchun muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Farmoni, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-sonli "Oliy ma'lumotli mutaxassislar

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi PF-60-sonli Farmoni.

tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 23-martdagi PQ-3620-sonli “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 394-sonli “Mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mazkur tadqiqot mavzusiga oid ilmiy izlanshlar E.S.Aznaurova, D.U.Ashurova, S.Boymirzayeva, Q.Mo‘ydinov, A.Nurmonov, R.Rasulov, Sh.Safarov, M.Hakimov, N.Husanov, J.A.Yoqubov, U.Yusupov kabi o‘zbek olimlari va J.Austin, J.R.Searle, G.P.Grice, T.Von.Dijk, G.Leech, L.M.Jacob, V.Z.Demyankov, Ye.V.Klyuyev, G.V.Kolshanskiy, T.Ye.Yanko, O.S.Issers, T.V.Tarassenko, Y.N.Karaulov kabi xorij olimlari tomonidan olib borilgan².

Jahon tilshunosligida rasmiy muloqot, rasmiy xatlar va tijoriy yozishmalar tilshunoslar M.Knight, M.R.Sharp, E.R.Brumberger, B.Du.Babcock, W.J.Wardrope tomonidan tadqiq etilgan³.

Rus tilshunosligida rasmiy xatlar masalalari Ye.V.Klyuyev, M.A.Koltunova, L.V.Matveyeva, D.A.Sevostyanov, A.A.Badayev, T.M.Danilova kabi olimlarning tadqiqotlarida o‘rganilgan⁴.

² Nurmonov A. Ko‘makchi konstruksiyalar presuppozitsiyasi // O‘zbek tili va adabiyoti. – T., 1986. – № 6; Aznaurova E.S. Pragmatika xudojestvennogo slova. – Tashkent: Fan, 1988. – 126 s.; Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 300 b.; Ashurova D.U. Proizvodnoye slovo v svete kommunikativnoy teorii yazika. – Tashkent: Fan, 1991. – 100 s.; Hakimov M. O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 176 b.; Ostin Dj. Slovo kak deystviye // Novoye v zarubejnoj lingvistike: Teoriya rechevix aktov. – M.: Progress, 1986; Serl Dj.R. Klassifikatsiya illokutivnix aktov // Novoye v zarubejnoj lingvistike: Teoriya rechevix aktov. – M., 1986. Vip. XVII; Grays G.P. Logika i rechevoye obsheniye // Novoye v zarubejnoj lingvistike: Lingvisticheskaya pragmatika. – M., 1985. Vip. XVI; Deyk van. T. Voprosi pragmatika teksta // Novoye v zarubejnoj lingvistike: Lingvistika teksta. – M., 1978. Vip. VIII; Geoffrey Leech. The Pragmatics of Politeness. – New York: Oxford University Press, 2014. – 343 p.; Jacob L.M. Pragmalinguistics: Theory and Practice. The Hague: Mouton Publishers, 1979. – 444 p.; Demyankov V.Z. Pragmaticheskiye osnovi interpretatsii viskazivaniya // Izv. AN SSSR. Sov. lit. i yazik, 1981. – № 4; Kolshanskiy G.V. Kontekstnaya semantika. – M.: Nauka, 1980. – 149 s.; Karaulov Yu.N. Russkiy yazik i yazikovaya lichnost. – M.: Nauka, 1987. – 264 s.; Yanko T.Ye. Kommunikativnie strategii russkoy rechi. – M.: Yaziki slavyanskoy kulturi, 2001. – S. 38; Tarassenko T.V. Etiketnie janri russkoy rechi: blagodarnost, izviniye, pozdravleniye, soboleznovaniye. Diss. ... kand. filol. nauk. – Krasnoyarsk, 1999.

³ Knight M. Writing and other communication standards in undergraduate business education: A study of current program requirements, practices, and trends // Business Communication Quarterly, 1999; Sharp M.R., Brumberger E.R. Business Communication Curricula Today: Revisiting the Top 50 Undergraduate Business Schools // Business Communication Quarterly, 2013; Du-Babcock B. Teaching business communication: Past, present, and future // The Journal of Business Communication, 2006; Wardrope W.J., Bayless M. Content of the business communication course: An analysis of coverage // Business Communication Quarterly, 1999.

⁴ Ключев Е.В. Речевая коммуникация. – М.: Рипол классик, 2002. – 316 с.; Колтунова М.А. “Деловое общение: Устная и письменная форма (к вопросу о служебной принадлежности)”. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Саратов, 1998. – 25с.; Матвеева Л.В. Психология телевизионной коммуникации. – М., 2002. – 316 с.;

O‘zbek tilshunosligida M.Xakimov o‘zbek tilida matnning pragmatik talqinini⁵, R.G.Karimov tijorat xatlarining lingvopragmatik xususiyatlarini⁶, shuningdek, D.M.Teshaboyeva tijorat xatlarida nutqiy etiketning qo‘llanilishni yoritib berganlar⁷.

Tijoriy yozishmalar bilan bog‘liq bir qator ilmiy izlanishlar mavjud bo‘lsada, lekin shu kunga qadar ingliz va o‘zbek tillardagi tijoriy yozishmalar, ularning dialogik, kommunikativ-pragmatik xususiyatlari chog‘ishtirma aspektda yoritilmagan hamda maxsus tadqiqot ishi olib borilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqot O‘zbekiston Davlat Jahon tillari universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvoviq “Doktorantlar, talabgorlar va talabalar o‘rtasida ilmiy-tadqiqot, ilmiy-ijodiy ishlar” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o‘zbek tillaridagi tijoriy yozishmalar matnlarini o‘rganish, ulardagi kommunikativ-pragmatik xususiyatlarni qiyosiy tahlil orqali yoritib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

rasmiy muloqotni muloqotning alohida turi sifatida o‘ziga xos jihatlarini aniqlash;

tijoriy yozishmalarning dialogik xususiyatlarini o‘rganish, uni rasmiy muloqotning asosiy turi sifatida tahlil qilish;

ingliz va o‘zbek tillaridagi tijoriy yozishmalar matnini tuzishda kommunikativ-pragmatik xususiyatlar, allomorf va izomorf jihatlarini ochib berish;

rasmiy muloqot jarayonida tomonlarning samarali muloqotga erishishida o‘zaro ta’sir qiluvchi kommunikativ maqsadlari, vazifalari va turli pragmatik intensiyalarining o‘xshash hamda farqli jihatlarini asoslab berish.

Tadqiqotning obyekt sifatida ingliz va o‘zbek tillaridagi rasmiy muloqotga oid tijoriy yozishmalar matni olingan.

Tadqiqotning predmetini rasmiy muloqotga doir tijoriy yozishmalar matnining ingliz va o‘zbek tillaridagi kommunikativ-pragmatik jihatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda kuzatuv metodi, tahliliy-tavsifiy va qiyosiy-chog‘ishtirma metodlar, konseptual tahlil, konseptual-taksonomik tahlil, lingvostatistik tahlil, qiyosiy-tipologik, pragmatik tahlil, pragmatik intensiya usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek tillaridagi tijoriy yozishmalarda muomala-madaniyati hamda nutq aktini aks ettiruvchi hissiy ijobiy tonallik bilan bog‘liq bo‘lgan madaniy kontekst

Севостьянов Д.А. Деловие Коммуникации. – Новосибирск: типография НГАУ, 2015. – 308 с.; Бадаев А.А. Психология общения. Энциклопедический словарь. – М.: Изд-во Кошто-Центр, 2011; Данилова Т.М. Педагогические условия формирования культуры делового общения у студентов-будущих менеджеров в вузе. Дис... канд. пед. наук. – Самара, 2008. – С. 13.

⁵ Xakimov M. O‘zbek tilida matnning pragmatik talqini. F.f.d ...dis. – T., 2001.

⁶ Каримов Р.Г. Тижорат хатларининг лингвопрагматик аспекти (инглиз ва ўзбек тиллари материалида). Фил. ф. ф. док. (PhD). дисс. – Тошкент, 2018.

⁷ Тешабаева Д.М. Речевой этикет делового письма (на материале русского и узбекского языков). Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 2000.

va differensiya tijoriy hamkorlikni kuchaytirishga erishishning asosiy omili ekanligi *ochib berilgan*;

tijoriy yozishmalarning nutqiy akt turlariga ko‘ra semantik jihatdan uyg‘unligi, nolisoniy omillarga bog‘liqligi, voqeaviy jihati, maqsadli ijtimoiy ta‘siri kabi dialogik xususiyatlari orqali yuzaga kelgan persuaziv kuch rasmiy muloqotning samaradorligi va kommunikativ effektivligini oshirishi *aniqlangan*;

tijoriy yozishmalarda modallikni ifodalovchi stilistik, kommunikativ-pragmatik xususiyatlar orqali ijobiy va salbiy ma‘lumotlar aks ettiruvchi matnlar tuzishda performativ predikatlar hamda emotsional-ekspressiv leksikadan foydalanilgani *isbotlangan*;

yozma muloqot jarayonida turli fenomenologik, perlokutiv va pragmatik intensiyalar shaxslarning hissiy holatlari, muallifning qanday reaksiya yoki harakatlarni yuzaga keltirishi, rasmiy va aniq tildan foydalanish orqali muloqotning samaradorligi oshishi *dalillangan*.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o‘zbek va ingliz tillaridagi tijoriy yozishmalarning tadqiqi natijasida olingan xulosalar chog‘ishtirma tilshunoslik, muloqot kompetensiyasi, kognitiv semantika va nutq madaniyati sohasiga oid tadqiqot yo‘nalishlarini yangi xulosalar bilan boyitishga imkon berishi ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan;

chog‘ishtirma tilshunoslik, nutq madaniyati, diskurs tahlili, stilistika va matn tahlili fanlarida, o‘quv dasturi va o‘quv-uslubiy majmualar shakllantirishda, madaniyatlarni kommunikatsiya jarayoniga oid tushunchalarni takomillashtirishda hamda yurtimizda iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishda, millatlar va davlatlar o‘rtasida rasmiy muloqotning rivojlanishida nazariy manba bo‘lib xizmat qilishi belgilangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq yoritib berilgani, sohaga oid qo‘yilayotgan muammoning dolzarbligi, ishda maqsadlarning yechimi, yondashuvlari va usullarining samaradorligi, chiqarilgan xulosalar qiyosiy-tipologik, kontekstual, pragmatik tahlil usullari bilan asoslangani, ishonchli nazariy manbalar, nashrlar hamda lug‘atlardan foydalanilgani, nazariy fikr va xulosaning amayoliyotda joriy etilgani, olingan natijaning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganini bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, amalga oshirilgan rasmiy muloqot haqidagi nazariy qarashlar, tahlil va munosabatlar hamda tijoriy yozishmalarning kommunikativ-pragmatik mexanizmlari hamda elementlarining ahamiyati rasmiy muloqotning kommunikativ-pragmatik aspektlarida belgilanadi va uning rivojlanishiga turtki bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tijoriy yozishmalarning bankini tuzishda, rasmiy muloqot uchun foydalaniladigan leksik birikmalardan lug‘at yaratishda, chet tilini o‘qitishda, davlat ta‘lim standartlarini tuzishda va darsliklar, o‘quv-qullanmalar va tarjima jarayonlarida qo‘llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Rasmiy muloqotning kommunikativ-pragmatik aspektini tahlil etish jarayonida olingan natijalar asosida:

erishilgan natijalar va ishlab chiqilgan tavsiyalar Samarqand davlat chet tillar institutida Yevropa Ittifoqining TEMPUS dasturi 2020-2021-yillarga mo‘ljallangan

Tempus Project 544161-TEMPUS-1-2013-1-UK-TEMPUS-JPCR Aston University DeTEL “Developing the Teaching of European Languages: Modernizing Language Teaching through the development of blended Masters Programmes” xalqaro loyihalarini amalda oshirishda va o‘quv jarayonida foydalanildi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 2-dekabrda 3463/30.02.01-sonli ma’lumotnomasi). Tadqiqot loyihasi natijasida talabalarning diskurs tahlili, stilistika va matn tahlili fanlaridan maxsus amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda hamda tilshunoslik fanidan umumiy nazariy va amaliy bilimlarini oshirishga yordam berdi;

ijobiy va salbiy ma’lumotlar aks ettirilgan matnlar asoslanganligiga oid ilmiy xulosa hamda takliflaridan Samarqand chet tillar institutining I-204-4-5 “Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o‘quv jarayoniga joriy etish” nomli innovatsion tadqiqot loyihasi doirasida foydalanildi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 27-maydagi 1155/30.02.01-sonli ma’lumotnomasi). Natijada axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratilishi va matnlarning dialogik xususiyatlari shakllantirilishiga xizmat qildi;

erishilgan natijalar hamda ishlab chiqilgan tavsiyalar Farg‘ona davlat universiteti bakalavriat bosqichi xorijiy til va adabiyoti (tillar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi uchun mo‘ljallangan “English as an international language” o‘quv qo‘llanmasida foydalanildi. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 25-noyabr oyidagi №388-43 raqamli o‘quv adabiyotning nashr ruxsatnomasi). Natijada o‘quv qo‘llanmada ilmiy-nazariy va ilmiy metodologik jihatdan rivojlantirishga oid ma’lumot olishlariga erishildi;

yo‘zishma matnlarini tuzishdagi muammolar, tijoriy yo‘zishmalarning qo‘llanilish ko‘lami, dialogik xususiyatlariga oid ilmiy xulosalar va amaliy takliflar Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining 5330500-Kompyuter injenerligi (Multimedia texnologiyalari) yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalar uchun ishlab chiqilgan “ENGLISH FOR MULTIMEDIA SPECIALISTS” nomli darsligida foydalanildi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Muvofiqlashtiruvchi kengash guvohnomasi № 356-075). Natijada talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, amalda qo‘llash malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari bo‘yicha 19 ta, shu jumladan, 13 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda qilingan ma’ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etish uchun tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, ulardan 6 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnalda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalar tarkibiy qismlardan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 164 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida ilmiy tadqiqotning mavzusi va uning dolzarbligi asoslangan bo‘lib, tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan, ilmiy ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan. Shu bilan birga, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari va ularning ishonchliligi, ishning nazariy va amaliy ahamiyati, erishilgan natijalarning amaliyotga joriy etilishi, ilmiy nashrlarda e‘lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasidagi ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Jahon tilshunosligida rasmiy muloqotning ilmiy-nazariy tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida rasmiy muloqot haqida tilshunos olim va tadqiqotchilarning nazariy qarashlari, taklif va munosabatlari, muloqot strategiyasi va uning turlari hamda kommunikativ strategiya mavzuviy tasnifi masalalari tahlil etilgan.

Bugungi kunda rasmiy muloqotga bo‘lgan munosabat keskin o‘zgardi. Millat mentaliteti va madaniy an‘analariga qarab, muloqot vaziyatlari va maqsadlariga mos ravishda so‘z hamda iboralar turlicha ishlatiladi va qabul qilinadi. Shunga ko‘ra nutqning kommunikativ jihatdan maqsadga muvofiqligi va to‘g‘riligi turlicha tushuniladi⁸.

Muloqot odamlar yoki ularning guruhlari o‘rtasida axborot almashinuvidir. Muloqotning – o‘zaro muloqot, ijtimoiy (funktional rol), rasmiy muloqot kabi turlari mavjud. Tijorat yuzasidan bo‘ladigan muloqot rasmiy munosabatlar sohasida o‘zaro bog‘liq holda yuz beradi, uning maqsadi aniq vazifalarni hal etish, muayyan natijalarga erishish va har qanday faoliyatni optimallashtirish hisoblanadi.

Tilshunoslik va metodik adabiyotda kommunikativ strategiya hamda uslublarning turli tipologiyalari keltirilgan. Masalan, O.S.Issers asosiy (semantik, kognitiv) va yordamchi strategiyalarni ajratib olishni taklif qiladi. Asosiy strategiya deb, kommunikativ o‘zaro ta‘sirning ushbu bosqichida motivlar va maqsadlarning iyerarxiyasi jihatidan eng muhim strategiyasiga atash mumkin. Ko‘pgina hollarda asosiy strategiyalarga, adresatga, uning dunyo modeliga, qiymatlar tizimiga, uning xatti-harakatlari (ham jismoniy ham intellektual) ta‘sir o‘tkazish bilan bevosita bog‘liq strategiyalar kiradi. Qo‘llab-quvvatlovchi strategiyalar dialogli o‘zaro ta‘sir o‘tkazishga samarali tashkil qilishga, adresatga maqbul ta‘sir o‘tkazishga yordam beradi⁹.

Muloqot jarayoni hech bo‘lmaganda ikki kishidan tashkil topgani sababli, muloqot ishtirokchilari asosan ikki turga: so‘zlovchi (kommunikant 1) va tinglovchi (kommunikant 2)ga bo‘linadi. Ularning har biriga muloqot jarayonida alohida bir rol beriladi. Albatta, har bir muloqotda rollar almashtiriladi¹⁰. Bu holatda har qanday maqsadga erishish uchun, nutqning qabul qiluvchiga yo‘naltirilganligi muhim bo‘lib, bunday muloqotda so‘zlovchi manipulyator rolini o‘ynaydi, chunki dialogik diskursning tashabbuskori aynan so‘zlovchi hisoblanadi. So‘zlovchi muloqot jarayonida manipulyator holatida bo‘ladi va tinglovchiga ta‘sir o‘tkazishga harakat qiladi. Aynan so‘zlovchining muloqot maqsadi muloqot jarayonini va yo‘nalishini boshqaradi.

⁸ Тешабаева Д.М. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида). Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2012. – Б. 74.

⁹ Иссерс О. С. Коммуникативные стратегии и тактики русской речи. Изд. 3-е, стереотипное. – М.: Эдиториал УРСС, 2003. – С. 146-150.

¹⁰ Матвеева Л.В. Психология телевизионной коммуникации. – М.: РИП-Холдинг, 2002. – 316 с.

E.V.Klyuev muloqot jarayonida qo'llaniladigan strategiyalar va taktikalarning nisbatini quyidagicha tushuntiradi: "Kommunikativ mahoratini ishga solgan holda so'zlovchi muayyan muloqot maqsadga erishadi (kommunikativ nuqtai nazardan istiqbolga ega yoki ega bo'lmagan) va ma'lum bir kommunikativ strategiyaga aylantiradi (yoki muloqot strategiyasiga mos yoki kamroq mos holda ishlab chiqadi). Shu alfozda so'zlovchi o'zining muloqotga kirisha olish tajribasini oshira boradi".

Muloqotga kirisha olish tajribasi muloqot jarayonining har bir ishtirokchisi shakllantirish uchun muhim hisoblanadi. Bu holat esa muloqot jarayonida ishtirok etuvchilarning mazkur jarayonda o'zigagina xos bo'lgan jihatlarni yuzaga chiqarish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Muloqot jarayoni, deyarli to'lig'icha, so'zlovchining muloqot maqsadiga mos holda kechadi. Biroq bu holat muvaffaqiyatli natijani 100 % kafolatlamaydi, ba'zida muloqot strategiya va taktikasining noto'g'ri tanlanishi natijasida dialog muvaffaqiyatsiz tarzda kechgan holatlar ham bo'lishi mumkin.

Muloqot vaqtida, muloqot muhiti va muloqot qiluvchilarning birgalikdagi harakati natijasida, ular o'rtasida og'zaki va og'zaki bo'lmagan shakldagi ma'lumot almashish yuz beradi. Muloqotning interaktiv tomoni qabul qilingan qarorlarning muvofiqligi bilan tavsiflanadi; muloqot qiluvchilarning xulq-atvori va adekvatligi; mojarolarni aql bilan hal qilishga bog'liq bo'ladi. Muloqotning perseptiv tomoni, anglash jarayoni va axborot vositalari holati tushunchasini o'z ichiga oladi. Odamlar subyektiv tuyg'ularga va paydo bo'lgan o'zaro kelishuvga asoslanib fenomenologik muloqotni o'rnatish orqali bir-birlari bilan aloqaga kirishishadi.

R.Dekart shaxsning fikrlash qobiliyatiga e'tibor qaratish va uning muloqotga kirishish qobiliyati muhim jihat ekanligini ko'rsatadi. Bu holat esa biznesning barcha tashqi va ichki psixologik asoslariga bog'liq holda yuz beradi. Fikrlashning bu talqini introspektiv psixologiyaning asosiy aksiomasiga aylandi. Ijtimoiy psixologiyani aks ettirish kommunikant (shaxs yoki jamoa)ning muloqot maqsadidan xabardor bo'lishi muhim bo'lib, mazkur holat, odatda, boshqa shaxslar yoki jamoalar tomonidan baholanadi.

Axborotni olish jarayoni muloqot turiga bog'liq holda yuz beradi. V.I. Kuzin ikki xil muloqot turini ajratib oladi: aksial (o'sib boruvchi) va retial (kamayib boruvchi)¹¹. Aksial muloqot (lotincha axis – og'zaki) aniq xabarlarini jo'natadi va qabul qiluvchilarni bog'laydi. Retial muloqot (lotincha rete – tarmoq) muayyan makonda yuz beradi va berilgan ma'lumotni qabul qilishni xohlovchilar tomonidan amalga oshiriladi.

Rasmiy muloqotning samaradorligi muloqot vaziyatini hisobga olishni talab etadi. Muloqot vaziyati muloqotning adresant-adresati, vaqti, joyi, maqsadi kabi tarkibiy qismlardan tashkil topadi. O'z maqsadini aniq tasavvur etgan holda suhbatdoshining maqsadini tushunib yetish va ularni o'zaro manfaatli ko'rinishga keltira bilishdan tarkib topadi¹².

A.Badayev rasmiy muloqotni mehnat jarayonida odamlarni hamkorlikni tashkil etish va optimallashtirishga qaratilgan maxsus aloqa shakli deb hisoblaydi¹³. Uning

¹¹ Кузин В. И. Психологическая культура журналиста. – Санкт Петербург: типография СПбГУ, 1998. – 130 с.

¹² Декарт Р. Сочинения в двух томах. Том 1. – М.: Мысль, 1989. – С. 142.

¹³ Бадаев А.А. Психология общения. Энциклопедический словарь / А.А.Бадаев. – М.: Изд-во Кошпо-Центр, 2011.

fikricha, rasmiy muloqot muzokaralar, uchrashuvlar va rasmiy yozishmalar, ommaviy soʻzlashuvlarni nazarda tutadi. Odamlar oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlarning keng koʻlamli masalalarini hal etish, ularni mazmunli maqsadlarga erishishda samarali hamkorlik qilish uchun shart-sharoitlar yaratish va umumiy ishning muvaffaqiyatini taʼminlashga qaratilgan.

Rasmiy muloqotning axloqiy meyorlariga rioya qilmaslik muammosi va uning tashkilot xodimlarining ishiga salbiy taʼsiri I.N.Broninning “Rasmiy muloqot etikasi”¹⁴, I.A.Juravlevaning “Axloqiy etika”¹⁵ deb nomlangan ishlarida ochib berilgan. G.V.Borozdina, E.D.Dotsenko, A.Kochetkovalar tomonidan rasmiy muloqotning psixologik jihatlari oʻrganilgan. B.F.Lomov muloqotni mustaqil psixologiyaning eng muhim toifalaridan biriga kiradi deb hisoblaydi va inson ongi ham, faoliyatda ham muloqotda shakllanadi, namoyon boʻladi va rivojlanadi degan xulosaga keladi. A.A.Badayev “Muloqot psixologiyasi” nomli asarida rahbar rasmiy madaniyatining axloqiy jihatlari tahlil qiladi. Unga koʻra rasmiy muloqot turli shakllarda amalga oshiriladi.

1-jadval

RASMIY MULOQOT SHAKLLARI



Rasmiy muloqotning samarali boʻlishi uchun ularning egasi kommunikativ qobiliyat (bilimlar va koʻnikmalar birligi)ga ega boʻlishi kerak.

Rasmiy muloqot madaniyati rahbarlar va subordinatlar (boʻysunuvchilar), hamkorlar hamda raqobatchilar oʻrtasidagi hamkorlik va hamkorlik munosabatlarini oʻrnatish bilan bir qatorda rivojlantirishga ham yordam beradi. U, asosan, munosabatlarning samaradorligini belgilaydi: bu aloqalar hamkorlar manfaatlari yoʻlida muvaffaqiyatli amalga oshirilishi yoki ular notoʻgʻri, samarasiz va hatto


¹⁴ Бронина И.Н. Этика делового общения. 2017, 16 март.

¹⁵ Журавлева И.А. Деловые коммуникации. Учебное пособие. – Иркутск: Изд-во, 2016. – С. 121.

o‘zaro kelishuvga kelmay (hamkorlik) butunlay to‘xtab qolgan taqdirda ham. Shuningdek, rasmiy muloqotning samaradorligi quyidagi omillarga bog‘liq¹⁶.

2-jadval

RASMIY MULOQOTNING SAMARADORLIK OMILLARI



Rasmiy muloqotning o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri, uning tartibga solinganligi, ya’ni belgilangan qoidalar va cheklolarga bo‘ysunishdir. Ushbu qoidalar rasmiy muloqotning shakli, shakllilik, rasmiyatchilik darajasi, muloqotga duch keladigan muayyan maqsad va vazifalar, shuningdek, milliy madaniy an’analar va ijtimoiy xatti-harakatlar normalari bilan belgilanadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Ingliz va o‘zbek tillaridagi tijoriy yozishmalarning matn xususiyatlari”** deb nomlanadi. Ushbu bobda ingliz va o‘zbek tillaridagi tijoriy yozishmalarning lingvistik, leksik, standartlik belgilari, subjanrlari hamda o‘ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan.

Hozirgi kunda bir qator o‘zbek tadqiqotchilari, jumladan, N.P.Lafasov, M.B.Akbarova, R.Rasulov, N.Husanov, Q.Mo‘ydinov, R.Kungurov, E.Begmatov, Y.Xadjiyev, P.Nosirov va rus tadqiqotchisi M.Kojinalar tomonidan nutq madaniyati hamda uning o‘rni, nutq janri hamda xususiyatlari o‘rganilib, funksional stilistika nuqtayi nazaridan batafsil tadqiq etilgan¹⁷.

Xususan, N.P.Lapasov o‘zining **“Nutq madaniyati”** deb nomlangan o‘quv qo‘llanmasida notiqlik va nutq madaniyatining boshqa fanlar bilan aloqasi, madaniy

¹⁶ Райгородский Д.Я. ПСИХОЛОГИЯ ДЕЛОВОГО ОБЩЕНИЯ. Хрестоматия. Учебное пособие для факультетов: психологических, экономических и менеджмента. – Самара: Издательский Дом «Бахрах-М», 2006. – 784 с.

¹⁷ Lafasov N.P., Akbarova M.B. Nutq madaniyati. – Toshkent, 2018; Rasulov R., Husanov N., Mo‘ydinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2006. – 132 b.; Begmatov E. Nutq madaniyati tushunchasi haqida // O‘zbek tili va adabiyoti, 1975; Kungurov R., Begmatov E., Xadjiyev Ya. “Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari”. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 1992. – 162 b.; Nosirov P. O‘zbek nutq madaniyati (O‘quv qo‘llanma). – T.: UAJBNT Markazi, 2004. – 197 b.; Кожина М.Н. О речевой системности научного стиля сравнительно с некоторыми другими. Учебное пособие. – Перм, 1972. – 395 с.

nutqning kommunikativ sifatlari, adabiy me'yor kabi mavzularni yoritib berilgan. Notiqlik va nutq ko'rinishlari, nutq texnikasi, munozara va epideyktik nutq masalalari keng tahlil qilingan.

D.M.Teshabayeva tadqiqotida nutqda odob-axloq qoidalariga e'tibor qaratib, "nutq odobi vositalari o'z-o'zidan ta'minlanmagan bo'lsada, ular muloqotchilar o'rtasida samarali muloqot uchun zarur va til kompetensiyasining bir qismidir"¹⁸ – deb ta'kidlaydi. Bu nutqda ifodalangan insonga xos kognitiv modellar majmui sifatida til qobiliyatini va ma'lum bir til hamda undan qanday foydalanish to'g'risidagi bilimlar yig'indisi sifatida nutq/til kompetensiyasini farqlash imkoniyatini beradi.

Har qanday nutqiy harakat, birinchi navbatda, so'zlovchi shaxsning lisoniy vositalar yordamida murojaatini taqazo etadi. Demak, nutqiy akt so'zlovchining ma'lum muhitda, aniq maqsadda tinglovchiga lisoniy murojaatidir. Nutq aktining nazariy jihatlarini ilmiy muammo sifatida Sh.Safarovning "pragmalingvistika" asarida ham alohida o'rin egallagan. Olim nutq akti nazariyasining pragmalingvistik ta'limotda tutgan o'ringa holis baho berdi, tilshunoslarning nutq akti va murojaat kategoriyasining voqelanishi haqidagi nazariy qarashlarini hamda yangi bilimlar bilan boyitdi. Sh.Safarovning fikricha, "nutq akti so'zlovchining ma'lum muhitda, aniq maqsadda tinglovchi muhitida talaffuz etilishi"dir¹⁹.

Ma'lumki, muloqotning shakllanishiga dastlabki, ayniqsa, murojaat, bosqichida gapiruvchiga ekstralingvistik omillar turtki bersa, so'nggi bosqichda u nutqiy ifodasiga ega bo'ladi. Nutqiy murojaat haqida mulohaza yuritgan Sh.Safarovning qayd etishicha, "*sabab-motiv-maqsad*" zanjiri nutqiy faoliyatidagi murojaatlarning turi va rejasini shakllantiradi hamda uning voqelanishini ta'minlaydi. Bizningcha, bu o'rinda "*sabab-motiv-maqsad*" zanjiriga verbal (ba'zan noverbal) ifodani ham kiritish kerak. Bu qism nutqiy faoliyatining so'nggi nuqtasini anglatadi.

Shubhasiz, matn aniq kommunikativ maqsadlarini amalga oshirish uchun yaratilgan. O.Moskalskayaning ta'kidlashicha, kommunikativ vaziyat va murojaat qiluvchi tomonidan qo'yilgan vaziyatlar bilan shartlangan kommunikativ maqsad har qanday matnning negizida yotadi²⁰.

Xatning rasmiy funksiyasining asosiy xususiyatlaridan biri bu – biznes uslubidagi matn shakli va mazmunining standartlashtirilgan hamda unifikatsiyalashtirilgan xususiyatga egaligidir. Shuningdek, bunday turdagi matnlarda tushunchalar ifodalanishining aniqliligi, o'ziga xos terminologik leksikaning qo'llanilishi, amaliy natijalarga erishishga maqsadli yo'naltirilganlik va ma'lum bir muddatga tegishlilik kabi xususiyatlar ham bunday turdagi matnlarga xosdir.

Tijoriy yozishmalar tahlili jarayonida quyidagi jihatlar aniqlandi: Tijoriy yozishmalar matnida "*iltimos*" shaklidagi muloqot maqsadi "*shikoyat bildirish*", "*o'pkalash*", "*norozilik*", "*uzr so'rash*", "*rozilik bildirish*", "*taklif berish*", "*xabar berish*", "*taqlif qilish*" kabi tushunchalar bilan birgalikda ifodalanishi

¹⁸ Тешабаева Д.М. Речевой этикет делового письма. Дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 2000. – С. 73.

¹⁹ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – Б. 63-72, 211.

²⁰ Москальская О.И. Грамматика текста. – М.: Наука. Высшая школа, 1981. – 184 с.

mumkin. Bu turdagi muloqot maqsadi quyidagi usullar orqali ifodalanadi: buyruq maylidagi yoki fe'ning noaniq shakli (*xabar berishingiz, aniqlashtirishingiz, tasdiqlab berishingiz*) + “*iltimos qilmoq, so‘ramoq*” ma’nosini beruvchi fe’ning tegishli shakli. Masalan: *Mazkur holatni aniqlashtirib berishingiz so‘raladi, kabi.*

“*Minnatdorchilik bildirish*” ma’nosidagi muloqot maqsadi “*shikoyat*”, “*gina qilish*”, “*tanbeh berish*” kabilardan tashqari deyarli barcha maqsadlar bilan birikib kelishi mumkin. Biroq bu turdagi muloqot maqsadi ayrim hollarda asosiy muloqot maqsadiga erishish uchun xizmat qiluvchi, ya’ni muloqot etiketiga xos bo‘lgan, yoki biror maqsadga erishish uchun asosiy maqsad sifatida ham kelishi mumkin. U til vositalari yordamida quyidagicha ifodalanishi mumkin: “*minnatdorchilik bildirish*” performativ shaklidagi fe’l yoki “*minnatdor*” sifatining qisqa shakli yordamida (*biz sizning yordamingizdan minnatdormiz kabi*).

“*Tilak bildirish*” ma’nosidagi muloqot maqsadi, xuddi “*minnatdorchilik bildirish*” maqsadi kabi, “*gina qilish*”, “*tanbeh berish*”, “*da’vo qilish*” kabilardan tashqari deyarli barcha maqsadlar bilan birika oladi. U, odatda, asosiy muloqot maqsadiga qo‘shimcha ravishda keladi va tijoriy yozishmalarning asosiy maqsadi sifatida deyarli uchramaydi (*Biz biznesingizning gullab-yashnashidan umidvormiz kabi*).

“*Rad etish*” ma’nosidagi muloqot maqsadi etiket va rad etishni “*silliq*” kechishiga erishish ma’nosida “*minnatdorchilik bildirish*” maqsadi bilan birikib kelishi mumkin. “*Rad etish*” ma’nosidagi tijoriy yozishmalarda muloqot maqsadiga erishish uchun maqsadning induktiv joylashishi kuzatiladi. “*Rad etish*” ma’nosini berish quyidagi til birliklari yordamida ifodalanadi: “*to‘g‘ri kelmoqda*” fe’lini qo‘llab (*rad etishimizga to‘g‘ri kelmoqda kabi*) yoki “*majburmiz*” shaklidagi sifatdosh yordamida (*rad etishga majburmiz*).

Tijoriy leksika – leksikaning shunday qatlami bo‘lib, unda iqtisodiy soha faoliyatida amalga oshiriladigan nutqiy jarayonni amalga oshirish nazarda tutiladi. Tijoratning tarkibiy qismlari, “*pul*”, “*foйда*”, “*bozor*”, “*investitsiya*”, “*iqtisodiyot*”, “*iqtisodiy faoliyat*” kabi asosiy tushunchalarni o‘z ichiga oladi²¹.

Tijoriy yozishmalarning matnlari, shuningdek, barcha darajadagi matnlarga ma’lum darajada yoki boshqasiga xos bo‘lgan umumiy xususiyatlarni qayd etadi. Tijoriy yozishmalarning lug‘ati umumiy, zaif yoki kuchli rasmiylashtirilgan bir vazifali, murakkab ko‘p topshiriqli, maxsus (xizmat) atamalar va ilmiy-texnik atamalarga bo‘linadi.

Zaif rasmiylashtirilgan bir vazifali tijoriy yozishmalarda, umumiy so‘z birikmasi matn elementlarining aksariyatini, maxsus lug‘at esa oz sonli birliklar bilan ifodalanadi. Bunday xatlar yuqori lavozimga ko‘tarilishda, mukofotlar to‘g‘risida yoki aksincha ta’ziya so‘zlari bilan yuborilishi mumkin, bu, asosan, ijtimoiy etik vazifasini bajaradigan xususiy-tijorat-xatlarda uchraydi.

Tahlilimiz natijasi shuni ko‘rsatadiki, tijoriy yozishmalarda rasmiyatchilik, ishbilarmonlilik va jiddiylik minimallashtirilgan hamda shu bilan birga, ham ijobiy, ham salbiy baholash (*respect – xurmat bilan, thanks – raxmat, appreciation –*

²¹ Karimov R.G. Tijorat xatlarining lingvopragmatik aspekti (ingliz va o‘zbek tillari materialida). Fil.f.f.dok. (PhD). diss. – Toshkent, 2018.

minnatdorchilik, sincerely – samimiy, regret – afsuski, concern – aloqador bo‘lmoq, condolences – ta’ziya bildirish, etc.) bilan hissiy jihatdan rang-barang leksika keng qo‘llanilgan.

Shuningdek, tahlillarimizdagi juda katta guruh klassik tillarning ildizlari va affikslari asosida hosil bo‘lgan so‘zlar guruhiga aylandi: masalan, Yunon tilining so‘z hosil qiluvchi elementlarini o‘z ichiga olgan leksik birliklar – *character – xarakterli, dialogue – suhbat, graph – grafik, base – asoslanmoq*; Lotin tilida so‘z yasovchi elementlarni o‘z ichiga olgan leksik birlik, masalan, *instance – namuna, facility – imtiyoz, cell – xona, exponent – ko‘rsatkich*.

Ikkinchi guruhga fransuz tilidan kelib chiqqan so‘zlar kiradi: *enhancement – oshirish, entry – kirish, check – chek, envelope – konvert* va hokazo.

Uchinchi guruhga nemis tilidan kelib chiqishi leksik birliklari (qadimiy leksika) kiradi: *finding – topilma, head – boshliq, batch – to‘plam, edge – ehtiyotkorlik bilan yaqinlashmoq* va boshqalar.

To‘rtinchi guruhga o‘zlashtirma so‘zlar kiradi: *grande vitesse, per capita, franco domicilium* va boshqalar. Bunday birliklarning tarkibiy qismlari grammatik nuqtayi nazardan qabul qilinmaydi va barcha klishe bir butun, ammo tabiatan begona sifatida qaraladi. Ba’zi lotin tilidagi so‘zlar va iboralar ingliz lug‘atiga ega klishelangan so‘z birikmalariga kiritilgan (*ed hoc expert group, ex-gratia payment, right in rem*).

Tijoriy yozishmalardagi klishelar, qarshi tomonning manfaati va takliflari xat yuboruvchi tomonidan e’tiborga olinishini yoki rad etilishini bildirishi mumkin. Ko‘pincha klisheda uchrab turadigan ijobiy yoki salbiy rangbaranglik hissiy rangbaranglik bilan bog‘liq, masalan, “*to express appreciation, to express thanks, in good time*” – minnatdorchilik bildirish ijobiy rangga ega va ingliz tilidagi ushbu klishelar o‘zbek tilida – *minnatdorchilik bildirmoq, – tashakkur etmoq, – mamnun bo‘lmoq, – minnatdorchilik izhor qilmoq* kabi bildiriladi. Shu bilan birga “*to express the gravest concern – , to note with regret, to note with concern*” – qattiq tashvishlanish, *afsuslanish, xavotirlanish* kabi salbiy va o‘ziga xos rad etish belgilariga ega hamda ular o‘zbek tilidagi – *xavotirlanmoq, afsuslanmoq, qattiq qayg‘urmoq* kabi valentlari mavjud. Biznes standartlari stilistik etiketda ham farq qilishi mumkin. Masalan, tijoriy yozishmalar neytral biznes standartlari (*with regard to – ...ni inobatga olib, in compliance with – ... ga muvofiq, to call to mind – esda tutmoq*) va iboralar (*as a matter of fact – aslini olganda, a sort of – bir xil ko‘rinishdagi, at any rate – har holda*) bilan ifodalanadi. Ta’kidlash joizki, tijoriy yozishmalar yuqori kitobiy leksik xarakterga ega emas.

Dissertatsiyaning “**Ingliz va o‘zbek tillaridagi tijoriy yozishmalarning kommunikativ-pragmatik aspekti**” deb nomlangan uchinchi bobida ingliz va o‘zbek tillaridagi tijoriy yozishmalarning modallik kategoriyalari, kommunikativ-pragmatik intensiyalarining o‘xshash va farqli jihatlari hamda elektron-tijoriy yozishma matnining pragmatik xususiyatlari tahlil etilgan.

Ma’lumki, matnning yana bir muhim kategoriyasi – modallik bo‘lib, u muallifning iboraga nisbatan munosabatini aks ettiradi. Ma’lumki, “modallik (lotincha modalis – o‘lchov, usul) – fikrning voqelikka bo‘lgan munosabatining turli xil ko‘rinishlarini, shuningdek, bildirilayotgan narsalarni subyektiv tarzda

tasniflashning turlicha ko‘rinishlarini ifodalovchi funksional-semantik kategoriyadir”²².

O‘zbek tilshunos olimi J.A.Yoqubov fransuz va o‘zbek tillarida modal fe‘llar yordamida “*reallik*”, “*istak*”, “*mumkinlik*”, “*zaruriyat*” kategoriyalarining sodda va qo‘shma gaplarda qo‘llanishi, turli lisoniy birliklar yordamida morfologik, leksik va sintaktik ifodalanish hamda turli tizimli tillarda modallik kategoriyasining qo‘llanish xususiyatlarini aniqladi²³.

O‘.K.Yusupov modallik kategoriyasining ifodalanishini o‘zbek va ingliz tillaridagi shart ergash gapli qo‘shma gaplarning qiyosiy tahlilida ko‘radi. Shart ergash gaplarni muallif modal ma’nosiga ko‘ra to‘rt turga bo‘ladi: real, mumkin, shubhali va noreal shart ergash gapli qo‘shma gaplar²⁴.

Bundan tashqari, R.G.Karimov tadqiqotida ingliz tilidagi tijorat xatlarida produktiv modal vositalar: *could, can, would, should* modal fe‘llari, *unfortunately (e’tiroz xatlariga xos) possible, maybe* modal so‘zlari qo‘llanilishi va *could, can, would, should* eng ko‘p va *might, may* kam ishlatiladigan modal fe‘llari aniqlaydi. Shuningdek, o‘zbek tilida modal so‘zlarning har birining o‘z mosliklari bo‘lib, qiyinchilik kerakli modal so‘zni muayyan kontekstlarda ishlatganda paydo bo‘ladi”²⁵ – deb hisoblaydi.

Shuni aytish lozimki, modallik kategoriyasi morfologik (fe‘l shakllari, ko‘makchi), leksik (to‘liqsiz va modal fe‘llar, modal so‘z, yuklama va maxsus qo‘shimchalar) va sintaktik (fonetik) usullar yordamida ifodalanadi.

Tijoriy yozishmada “*may*”, “*might*”, “*would*” modal fe‘llardan foydalanadigan jumlar nisbati juda katta. Tijoriy yozishmadagi “*may*” fe‘lidan taxmini yoki hatto ma’lum darajada yetarlicha katta ishonchni ifodalash uchun foydalaniladi:

“*We will be happy to supply any additional information you may require about materials and prices*” (Indiya, WidelinksInc.).

“*Might*” fe‘lidan taxminlarni ifodalash uchun ham keng foydalaniladi. Masalan: “*We took the initiative of passing your catalogue to Borger Bros., who might be interested* (Buyuk Britaniya, Barclays Bank PLC).

Ingliz va o‘zbek tillaridagi tijoriy yozishmalarning quyidagi o‘ziga xos xususiyatlari aniqlandi:

